XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 1-may VI-101-60-14-0-K/24 Toshkent shahri

Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi)ni o‘rnatish hamda unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im miqdori tasdiqlash va tashqi reklama sohasini tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida” 2020-yil 20-fevraldagi 104-son, “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 428-son qarorlariga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Quyidagilar:

Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi)ni o‘rnatish hamda unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni joylashtirish tartibi 2-ilovaga muvofiq;

tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ga qo‘yiladigan talablar va texnik reglament 3-ilovaga muvofiq;

reklamadan xoli hududlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari (A.Xen):

mazkur qarorning 2- va 3-ilovalari kuchga kirganidan so‘ng bir yil ichida tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni belgilangan yangi tartibga moslashtirish choralarini ko‘rsin;

ikki oy muddatda Toshkent shahridagi LED ekranlarni yorug‘lik darajasini me’yorga keltirish chorasini ko‘rsin;

Toshkent shahridagi tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni muntazam xatlovini yuritsin.

3. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrida tashqi reklama obyektlari uchun yig‘imlar miqdorini belgilash to‘g‘risida” 2020-yil 6-iyundagi 96/13-6-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmatiga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror bilan tasdiqlanayotgan 1-ilova qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 15 kundan keyin hamda 2-4-ilovalar uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Taxirov va Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari A.Xen zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

MATIBAYEV
TASPOLAT
BALTABAYEVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining
2024-yil 1-maydagi
VI-101-60-14-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlar miqdori

I. Yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi konstruksiyalar								
№	*Reklama obyektlarining turlari*	*o‘lchov birligi*	*BHMning foizi*	*Koeffitsiyentlar*				
				Zona 5	*Zona 4*	*Zona 3*	*Zona 2*	*Zona 1*
1.1	kichik formatdagi (2,19 kv.m.gacha)	kv.m	10	0,8	0,9	1,0	1,3	1,5
1.2	o‘rta formatdagi (2,2 kv.m.dan 12 kv. m.gacha)	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,3	1,5
1.3	katta formatdagi (12 kv.m.dan 18 kv. m.gacha)	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,3	1,5
1.4	o‘ta katta formatdagi (18 kv.m.dan ortiq)	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,3	1,5
1.5	0,3 x 0,3 metrdan katta hajmli-fazoviy qurilma	kv.m	10	0,8	0,9	1,0	1,3	1,5
II. Binolar, inshootlar va qurilmalardagi reklama konstruksiyalari								
№	*Reklama obyektlarining turlari*	*o‘lchov birligi*	*BHMning foizi*	*Koeffitsiyentlar*				
				Zona 5	*Zona 4*	*Zona 3*	*Zona 2*	*Zona 1*
2.1	binoning tashqi qismida joylashtirilgan konstruksiyalar	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
2.2	maydonli to‘siqlardagi konstruksiyalar	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
2.3	ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgichlar, quvur liniyalarida o‘rnatilgan konstruksiyalar	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
2.4	markizlar, vitrajlar	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
2.5	hajmli-fazoviy qurilma	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
2.6	tom usti reklama konstruksiyalari	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
2.7	konsolli panellar	dona	20	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
III. Tashqi reklama vaqtinchalik obyektlari (konstruksiyalari)								

№	*Reklama obyektlarining turlari*	*o'lchov birligi*	*BHMning foizi*	*Koeffitsiyentlar*				
				Zona 5	*Zona 4*	*Zona 3*	*Zona 2*	*Zona 1*
3.1	qurilish maydonchalaridagi 2 kv.m va undan ko'p bo'lgan vaqtincha reklama to'siqlari	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
3.2	1 kv.m va undan ortiq bo'lgan peshlavhalar	kv.m	15	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
3.3	nostandart shakldagi konstruksiyalar	kv.m	7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
3.4	promoqurilmalar	kv.m	15	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
IV. Yorug'li-diodli monitorlar, elektr ekranlar (video ekranlar, displeylari va boshqalar)								
№	*Reklama obyektlarining turlari*	*o'lchov birligi*	*BHMning foizi*	*Koeffitsiyentlar*				
				Zona 5	*Zona 4*	*Zona 3*	*Zona 2*	*Zona 1*
4.1	yorug'li-diodli monitorlar, elektr ekranlar	kv.m	20*	0,7	0,8	1,0	1,2	1,5

V. Binolarda joylashgan yorug'li fasadlar			
№	*Reklama obyektlarining turlari*	*o'lchov birligi*	*BHMning foizi*
5.1	Mediafasadlar	kv.m	7**
VI. Ko'cha mebeli, nostatsionar savdo obyektlari va bekatlar			
№	*Reklama obyektlarining turlari*	*o'lchov birligi*	*BHMning foizi*
6.1	ko'cha mebeli	dona	7
6.2	avtobus to'xtash bekatlari	kv.m	12
6.3	nostatsionar savdo obyektlari	dona	30
VII. Transport vositalarida joylashtirilgan tashqi reklama uchun yillik yig'imlar miqdori			
№	*Transport vositalarining toifalari*	*o'lchov birligi*	*BHMning foizi*
7.1	L1-L7 – mototransport vositalari	dona	50
7.2	M1 – yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	150
7.3	M2 – yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t gacha bo'lgan avtotransport vositalari	dona	250

7.4	M3 – yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t dan ko‘p bo‘lgan avtotransport vositalari***	dona	350
7.5	N1 – yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	350
7.6	N2 – yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 12 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	550
7.7	N3 – yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 12 t dan ortiq bo‘lgan avtotransport vositalari	dona	750
7.8	O1— eng katta vazni 0,75 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	150
7.9	O2 – eng katta vazni 0,75 t dan ortiq, lekin 3,5 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	250
7.10	O3 – katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 10 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	350
7.11	O4 – eng katta vazni 10 t dan ortiq bo‘lgan tirkamalar	dona	550
7.12	Ko‘targich-transport uskunalari	dona	600
VIII. Tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni demontaji uchun kompensatsiya			
№	*Reklama obyektlarining turlari*	*o‘lchov birligi*	*BHMning foizi*
8.1	yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi statik konstruksiyalar	kv.m****	200
8.2	binolar, inshootlar va qurilmalardagi statik reklama konstruksiyalari	kv.m****	300
8.3	yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi yorug‘li-diodli monitorlar, elektr ekranlar	kv.m****	300
8.4	binolar, inshootlar va qurilmalardagi yorug‘li-diodli monitorlar, elektr ekranlar	kv.m****	400
8.5	ko‘cha mebeli	dona	200

Izohlar:
** masofadan boshqarish tizimiga ulangan har bir tashqi reklama obyektiga ulangan oydan boshlab 12 oy davomida yig‘im summasining 10 foizini miqdorida rag‘batlantirish beriladi, bu summa har bir obyekt uchun 500 ming so‘mdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda hisoblanadi;*
*** tijoriy reklama joylashtirilgan har bir kuni uchun hisob-kitobi asosida olinadi;*
**** yo‘nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno;*
***** minimal demontaj hajmi 4 kv.m. Agar demontaj qilingan obyekt 4 kv.m dan kam bo‘lsa, kompensatsiya miqdori 4 kv.m maydon uchun hisoblab chiqiladi.*

To‘lov miqdori quyidagicha belgilanadi:
T = B x M x K / 100

bunda:
T — 1 oyda 1 kv. metr uchun yig‘im miqdori;
B — amaldagi BHM stavkasi;
M — BHMning belgilangan foizi;
K — hududiy zonalar koeffitsiyenti.

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 1-maydagi
VI-101-60-14-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish
TARTIBI

1. Umumiy qoidalar

1.1. "Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi mazkur tartib (keyingi o'rinlarda – Tartib) O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi boshqa bir qator me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu Tartib Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni hamda tashqi reklama sohasiga taalluqli boshqa masalalarni tartibga soladi.

1.2. Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish tartibi Toshkent shahri uchun tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatishning yagona tartibini, tashqi reklama va axborot vositalarini loyihalashtirishga, tashqi reklama va axborot vositalarini joylashtirishga (o'rnatishga, montaj qilishga), ulardan foydalanish va demontaj qilishga, tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish chizmasiga reklama joylarini kiritishga qo'yiladigan talablarni, shuningdek, tashqi reklama va axborot vositalarini joylashtirish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish, mazkur Tartibning ijrosi ustidan nazorat qilish tartibini belgilab beradi.

1.3. Ushbu Tartib talablariga rioya qilish barcha jismoniy shaxslar va mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'i nazar yuridik shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

1.4. Ochiq yarmarkalar, bozorlar, savdo majmualari va savdo markazlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, istirohat bog'lari, stadionlar, sport majmualari, jamoat transporti bekatlari hududlariga, transport vositalariga (yo'nalishli avtobuslar bundan mustasno), mulkchilik shaklidan qat'i nazar yer uchastkasi, bino yoki inshootlarga o'rnatilgan hamda shahar muhitiga moslashtirilgan tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) qonun hujjatlariga va ushbu Tartibga muvofiq pasportlashtirilishi, o'rnatilishi va foydalanishi shart.

1.5. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) turlarini Toshkent shahri hududiga o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.

2. Asosiy tushunchalar, atamalar, ta'riflar

2.1. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar, atamalar va ta'riflar qo'llanadi:

reklama — har qanday reklama vositalaridan foydalangan holda tarqatiladigan, mazmuni O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan reklamadan foydalanuvchilarga qaratilgan va reklama obyektiga ye'tiborni jalb qilish, unga bo'lgan qiziqishni shakllantirish yoki qo'llab-quvvatlash, shuningdek, uni bozorda bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida ilgari surish uchun mo'ljallangan maxsus axborot;

reklama obyektlari — ye'tiborni jalb yetish uchun reklama o'ziga nisbatan yo'naltirilgan tovar, shu jumladan tadbirlar, texnologiyalar, individuallashtirish vositalari, intellektual faoliyat natijalari, shuningdek jismoniy yoki yuridik shaxslar to'g'risidagi axborot;

reklama beruvchi — reklama qilinadigan tovarni ishlab chiqarishni yoki sotishni amalga oshiruvchi, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoxud norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs yoxud reklama obyektini va (yoki) reklama mazmunini belgilab bergan boshqa shaxs, shu jumladan homiy;

reklama tayyorlovchi — reklamani tarqatish (joylashtirish) uchun axborotni to'liq yoxud qisman tayyor shaklga keltirishni amalga oshiradigan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

reklama tarqatuvchi — reklama vositalari orqali reklama tarqatishni amalga oshiradigan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

reklamadan foydalanuvchi — reklama o'ziga nisbatan yo'naltirilgan shaxs yoki shaxslar guruhi;

ijtimoiy axborot — tarqatilishi bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olishni maqsad qilib olmagan, nomuayyan shaxslar doirasiga yo'naltirilgan hamda xayriya va sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, yenergetika resurslarini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, aholini ijtimoiy himoya qilish va uning xavfsizligi, ma'naviyat va ma'rifat, jamiyat va davlat manfaatlarini ta'minlash sohalarida ijtimoiy foydali maqsadlarga yerishishga qaratilgan axborot, shuningdek, notijorat xususiyatidagi boshqa axborot;

tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)/obyektlar — tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va qo'llanadigan vositalar, shuningdek, axborotni aholiga yetkazish vazifasini bajaruvchi texnik vositalar (konstruksiyalar) (pilonlar, ko'chma reklama konstruksiyalari (ustun, plakat), prizmatronlar, proyeksiyaviy konstruksiyalar, bilbordlar, videoyekranlar, elektron displeylar va boshqa texnik vositalar), shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga muvofiq vaqtinchalik inshoot hisoblangan alohida turgan obyektlar.

reklama joyi (tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) o'rnatiladigan joy) — reklama tarqatish obyekti (konstruksiyasi) o'rnatiladigan Toshkent shahri hududidagi maxsus ajratilgan va (yoki) berilgan hudud (er, asfalt, yashil hudud va boshqalar), bino, inshoot sirtqi qismining muayyan yuzasi;

reklama joyining pasporti — Toshkent shahri hokimligi yoki vakolatli tashkilot (Toshkent shahri hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlantirish departamenti) tomonidan beriladigan hujjat bo'lib, ushbu hujjat yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) unda ko'rsatilgan yer uchastkasiga, binoga yoki inshootga, mulk shaklidan qat'i nazar, o'rnatish huquqini tasdiqlaydi;

shahar muhiti — ishlab chiqarish, ijtimoiy, muhandislik, transport infratuzilmasining moddiy obyektlarini, havo va yerosti hududini (metro infratuzilmasi bundan mustasno) o'z ichiga oladigan hamda tashqi reklama va axborot obyektlarini (inshootlarini) o'rnatish (tarqatish) uchun tijorat qiymatiga ega bo'lgan shahar chegaralarida aholining yashash va (yoki) faoliyat yuritish muhiti;

tashqi reklama operatori — uchinchi shaxslarning tashqi reklamalarini joylashtirish (tarqatish) uchun o'ziga tegishli tashqi reklama obyektlarining (konstruksiyalarining) reklama maydonlarini taqdim etish faoliyatini amalga oshiruvchi reklama tarqatuvchisi;

axborot maydoni — tashqi reklama va axborot obyektining (konstruksiyasining), shu jumladan vaqtincha mahkamlangan elementlarning tashqi reklamani chiqarish (joylashtirish) uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yuza qismi;

axborot konstruksiyasi — notijorat xususiyatidagi axborotni joylashtirish uchun maxsus mo'ljallangan texnik vosita (qurilish obyektining pasporti, kichik daha chizmasi, korxonalarning ish vaqti va boshqalar);

masofadan boshqarish — tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) dinamik tasvirni o'zgartirgan holda masofadan boshqarish xavfsizligini ta'minlaydigan elektron platforma;

Reklamadan holi xududlar — Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi tomonidan reklamadan holi xudud sifatida belgilangan, har qanday tashqi reklama vositalarini o‘rnatish taqiqlangan chegaralari aniq maxsus hududlar.

tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasi — o‘rnatilishiga yo‘l qo‘yiladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish joylarini belgilaydigan, ularning turlari, shakllari, texnik tavsiflari, axborot maydonlarining sathi ko‘rsatilgan holdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hamda hududiy rejalashtirish chizmasi asosida ishlab chiqiladigan hujjat;

tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) montaj qilish — tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus mo‘ljallangan va foydalaniladigan texnik vositani o‘rnatish jarayoni.

3. Tashqi reklama sohasida davlat tomonidan tartibga solish

3.1. Toshkent shahar hokimligi huzuridagi “Raqamli rivojlantirish departamenti” MChJ (keyingi o‘rinlarda — Departament) Toshkent shahar hokimligining tashqi reklama va axborot masalalarini tartibga solish bo‘yicha vakolatli ishchi organi hisoblanadi.

3.2. Departament quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish, ulardan foydalanish va monitoring qilish masalalariga oid ishlarga umumiy rahbarlik qiladi va ularni muvofiqlashtiradi;
- tashqi reklama sohasida Toshkent shahar hokimligiga yuklangan, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda Toshkent shahar hokimining qaroriga muvofiq Departamentga berilgan vakolatlar doirasida vazifalarni bajaradi.

3.3. Quyidagilar Departamentning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- tashqi reklama bozorini rivojlantirish va tartibga solish masalalarida davlat organlari, vazirliklar va idoralarning shahar boshqarmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Toshkent shahrida tashqi reklama va axborotni rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash masalalari bo‘yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- reklama obyektlarining (konstruksiyalarining) tavsiya etilgan turlari, ko‘rinishlari, asosiy dizaynerlik yechimlari va o‘lchamlari va ularni joylashish chizmasiga asosan auksionga chiqarish uchun ro‘yxatlarini tayyorlash;
- auksionga chiqariladigan tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish uchun davlat mulki bo‘lgan bo‘sh yer uchastkalari, bino va inshootlarida reklama joylarini aniqlash maqsadida shahar muhitini xatlovdan o‘tkazish ishlariga rahbarlik qilish;
- tashqi reklama bo‘yicha maxsus veb-saytda auksionga chiqarish uchun shakllantirilgan reklama joylari ro‘yxatlarini e’lon qilish; tashqi reklama bo‘yicha maxsus veb-saytga havolani Toshkent shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish;
- tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) muntazam ravishda xatlovdan o‘tkazish ishlarini tashkillashtirish. Xatlov natijalarini ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha qarorlar qabul qilish;
- tashqi reklama sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning xatlari, murojaatlari va shikoyatlarini ko‘rib chiqish;
- Toshkent shahrida reklamadan xoli hududlarni belgilash bo‘yicha loyiha-takliflarni tayyorlash va ularni tasdiqlash uchun xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga kiritish;
- reklama bozori va normativ-huquqiy bazani tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda tashqi reklamaga oid normativ-huquqiy bazaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha takliflar kiritish;
- Toshkent shahri hududida joylashgan reklama joylari pasportlarining yagona reyestrini yuritish;

- berilgan vakolatlar doirasida tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) texnik va estetik holatini doimiy monitoring qilish;

- tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) egalari bilan ishlash hamda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilishini nazorat qilish;

- tadbirkorlar va bino-inshootlar egalari o'rtasida tashqi reklama va axborot obyektlarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- Toshkent shahar hududida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish tartibi talablariga muvofiq, shahar muhitini, tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) muntazam ravishda monitoring qilish;

- tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqi reklama bozori to'g'risida axborot olish;

- joylashtirilgan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) hisobini yuritish;

- davlat organlarining ko'rsatmalariga muvofiq ijtimoiy axborotni joylashtirish yuzasidan topshiriqlar berish;

- ijtimoiy axborotni joylashtirishni hisobini yuritish;

- reklama joyi pasportining egalari tomonidan ushbu Tartib hamda tashqi reklama vositalarini joylashtirish va ulardan foydalanish huquqiga oid shartnomalar bo'yicha yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi faktlarini aniqlash va ularning hisobini yuritish;

- tashqi reklama bo'yicha maxsus veb-saytda tashqi reklamadan xoli hududlar, reklama joylari va ularning egalari reyestri, tashqi reklamaga taaluqli auksionlar o'tkazilishi hamda ularning natijalari va boshqa ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab turish;

- reklama tarqatuvchilar va tashqi reklama obyektlarini masofadan boshqarish xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish ishlarini olib borish;

- tashqi reklama bozoridagi munosabatlarni tartibga solish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sudlarida barcha huquq va majburiyatlar bilan javobgar, da'vogar yoki arizachi sifatida qatnashish;

- ilgari demontaj qilingan tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq realizatsiya va utilizatsiya qilish;

- zarur hollarda, tashqi reklama samaradorligini aniqlash, o'rganish va tahlil qilish.

Departament tashqi reklama sohasidagi tadbirkorlarga ta'lim va boshqa tegishli xizmatlar ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Departament Toshkent shahar hokimining qarorlariga muvofiq, tashqi reklama sohasida boshqa faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega.

4. Tashqi reklama sohasida o'zini o'zi tartibga solish

4.1. Reklamaga oid faoliyat sub'ektlarining birlashmalari tadbirkorlik sub'ektlar o'rtasida tashqi reklama sohasida nizolar yuzaga kelganda mediator (vositachi) sifatida qatnashishi mumkin.

4.2. Reklamaga oid faoliyat sub'ektlarining birlashmalari qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va reklamaga oid faoliyat sub'ektlarini birlashtirgan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi.

4.3. Reklama faoliyati sub'ektlari reklama faoliyati sohasidagi nizolarni sudgacha hal qilish uchun mediatorlarga murojaat qilishga haqli. Mediatsiyani amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq belgilanadi.

4.4. Reklamaga oid faoliyat sub'ektlarining birlashmalari vakolatli davlat organining so'roviga ko'ra reklamaning qonunchilik talablariga mosligi haqida xulosa va izohlar taqdim etadi.

4.5. Reklamaga oid faoliyat sub'ektlarining birlashmalari reklama to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

5. Reklamadan xoli hududlarni belgilash tartibi

5.1. Departament reklamaning aylanishi sohasidagi vakolatli davlat organi — O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda— Qo‘mita) bilan kelishgan holda Toshkent shahri hududida reklamadan xoli hududlar ruyxatini shakllantiradi va tasdiqlash uchun xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga kiritadi.

Quyidagilar reklamadan xoli hududlarga kiradi:

- davlat hokimiyati organlari binolari joylashgan hududlar, xususan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Senati, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, hokimliklar, vazirliklar va idoralar binolari va boshqalar;
- xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan tashqi reklamadan xoli hudud deb tasdiqlangan joylar;
- O‘zbekistonning moddiy madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan madaniy-tarixiy, diniy obyektlar joylashgan hududlar.

5.2. Departament tomonidan reklamadan xoli zonaga kiritiladigan hududning tarhi tuzib chiqiladi va ushbu joyning xaritasiga tegishli qaydlar kiritilgan holda taqiq joriy etiladi.

5.3. Reklamadan holi hududlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan qabul qilinadi.

5.4. Departament tomonidan reklamadan xoli hududlar to‘g‘risidagi axborot aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga yetkaziladi, shuningdek, tashqi reklama bo‘yicha maxsus veb-saytga joylashtirilishi shart.

6. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasini shakllantirish tartibi

6.1. Departament davlat va xususiy mulk bo‘lgan yer uchastkalari, binolar, inshootlardagi yangi reklama joylari ro‘yxatini shakllantiradi. Reklama joyini tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) chizmasiga kiritish bo‘yicha manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qaroriga 6-ilovadagi “Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarni) o‘rnatish chizmalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”da nazarda tutilgan tartibga muvofiq qabul qilinadi.

6.2. Departament davlat va xususiy mulk bo‘lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlardagi yangi reklama joylarini shakllantirilgan ro‘yxatini auksionga chiqarish uchun tegishli muassasalar bilan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xavfsiz o‘rnatish va ulardan foydalanishning texnik imkoniyatlari qismi bo‘yicha kelishadi.

6.3. Har bir obyekt bo‘yicha xatlovdan o‘tkazish varag‘i tuziladi va unda obyekt joylashgan yoki joylashtiriladigan manzil haqidagi batafsil axborot, tashqi reklama va axborot obyektining (konstruksiyasining) turi, texnologiyasi, texnik tavsiflari, axborot maydonlarining sathi haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

6.4. Zarur kelishuvlardan o‘tgandan so‘ng davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalari, binolar, inshootlardagi yangi reklama joylarining shakllantirilgan ro‘yxatlari, ularga tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasiga o‘zgartirishlar kiritish loyihasi, har bir reklama joyining tijorat qiymatidan kelib chiqib tavsiya etiladigan boshlang‘ich narxi va boshqa zarur hujjatlar (axborot, ma’lumotlar) ilova qilingan holda, tasdiqlash uchun xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga yuboriladi. Ma’lumotlar Kengash tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, elektron savdo orqali lotlarga ajratgan holda realizatsiya qilish uchun “Ye-auksion” elektron savdo platformasiga yuboriladi.

6.5. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasi ochiq bo‘lib, hamma tanishishi mumkin. Mazkur chizmalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e’lon qilinishi shart.

6.6. Toshkent shahrida joylashgan davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqi uchun onlayn auksionga chiqariladigan yangi joylarning tasdiqlangan ro‘yxatlari rasmiy (maxsus) saytlarda e’lon qilinadi.

7. Reklama joyining pasporti

7.1. Reklama joyining pasporti — Toshkent shahar hokimligi yoki vakolatli organ (Departament) tomonidan beriladigan hujjat bo‘lib, ushbu hujjat yuridik va jismoniy shaxslarning mulk shaklidan qat’i nazar yer uchastkasiga, binoga yoki inshootga tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish huquqini tasdiqlaydi.

7.2. Reklama joyining pasportida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

- tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) joylashgan manzili va uni o‘rnatish chizmasi (geolokatsiyasi bilan birga);
- reklama joyining egasi to‘g‘risidagi axborot;
- muayyan reklama joyiga o‘rnatilgan aniq bir tashqi reklama va axborot obyektining (konstruksiyasining) asosiy tavsiflari;
- reklama joyining unga tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) o‘rnatilgandan keyingi fotosurati, agar reklama konstruksiyasi birinchi marta o‘rnatilayotgan bo‘lsa, u holda reklama konstruksiyasini eskizi ko‘rsatiladi;
- pasport raqami va reklama joyining raqami;
- QR-kodi;
- berilgan sanasi va amal qilish muddati.

7.3. Reklama joyining pasporti auksion natijalariga ko‘ra tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqi uchun to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, avtomatik ravishda QR -kodi bilan elektron shaklda shakllantiriladi. Shuningdek, xususiy mulk obyektlarida joylashtiriladigan tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) reklama joyi pasportining elektron nusxasi xususiy mulk egalariga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qarori bilan belgilangan tartibga muvofiq beriladi.

7.4. Reklama joyining pasportini olgandan so‘ng, auksion g‘olibi quyidagi majburiyatlarga ega:

- olti oy ichida tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish;

- tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish bo‘yicha montaj ishlari boshlanishidan besh ish kuni oldin hamda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish ishlari yakunlangandan so‘ng uch ish kuni mobaynida Departamentni xabardor qilish; bunda, tashqi reklama va axborot obyektining (konstruksiyasining) egasi obyektlarni foydalanishga topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirishi va Departamentga taqdim etishi shart;

- ye*r ishlarini olib borish uchun ishlarni bajarish joyi, muddati va vaqti, foydalaniladigan yo‘l texnikasi va yo‘l belgilarini joylashtirishni (transport vositalari harakatlanish hududida ishlar amalga oshirilgan taqdirda) ko‘rsatgan holda ishlab chiqarish ishlari chizmasini vakolatli organ va tashkilotlar, shu jumladan Toshkent shahar IIBB YHXB, bilan kelishish orqali order olish;*

- Departamentga tegishli litsenziyasi bo‘lgan vakolatli tashkilotning tashqi reklama va axborot obyektini joylashtirish joyi hamda tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) joyi pasport talablari va texnika xavfsizligi reglamentiga muvofiq o‘rnatilganligi to‘g‘risidagi xulosasini taqdim etish;

- Departament bilan tuzilgan shartnomada ko‘rsatilgan boshqa majburiyatlar.

7.5. Tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) egasi xavfsizlik qoidalarining har qanday buzilishi, shuningdek, obyektni montaj qilish va undan foydalanish shartlarini buzganligi sababli yuzaga kelgan nosozliklar va avariya holatlari uchun shaxsan javobgardir.

8. Tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqi uchun auksion yakunlariga asosan reklama joyining pasportini olish tartibi

8.1. “Ye-auksion” elektron savdo platformasining bayonnomasi, ommaviy oferta shartnomasini aksept qilgan holda tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqi uchun uch oylik to‘lovlarni to‘langanlik fakti davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarda tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqini beruvchi reklama joyining pasportini berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

8.2. Elektron onlayn-auksion bayonnomasi asosida auksion g‘olibining ma’lumotlari reklama joyining pasporti va boshqa tegishli hujjatlarga kiritiladi hamda auksion g‘olibiga elektron shaklda beriladi.

8.3. Reklama joyining pasportiga hisobga olish raqami beriladi va u tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) yagona reyestriga kiritiladi.

8.4. Reklama joyining pasporti tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va undan foydalanish huquqini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

9. Xususiy mulk toifasiga kiradigan yer hududlari, binolari va inshootlariga, transport vositalariga tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqini olish tartibi

9.1. Xususiy mulk toifasiga kiradigan yer hududlari, binolari va inshootlariga tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqni olish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qarori bilan tasdiqlangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususiy toifasiga kiradigan ko‘chmas mulklarda reklama joyining pasporti ommaviy oferta shartnomasini qabul qilgan holda tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun uch oylik to‘lovlarni belgilangan tartibda to‘lagandan so‘ng arizachiga beriladi.

10. Reklama joyining pasportiga o‘zgartirish kiritish tartibi

10.1. Quyidagi hollarda reklama joyi pasportiga uning amal qilish muddati tugashidan oldin o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin:

- reklama joyi pasportining egasi tadbirkorlik sub’ekti nomi bo‘yicha qayta tashkil etilganda;
- tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasiga o‘zgartirish kiritilganda.

10.2. Reklama joyining pasportiga o‘zgartirishlar kiritish uchun pasport egasi elektron tizim orqali Departamentga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga o‘zgartirishlarni asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi (yuridik shaxsning qayta tashkil qilinganini tasdiqlovchi xujjatlar nusxalari va bunday o‘zgarishlar davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi xujjatlar).

10.3. Departament o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatini batafsil o‘rganib chiqadi va 15 ish kuni ichida ariza beruvchiga elektron tizim orqali javob qaytaradi.

10.4. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda, Departament ariza qabul qilingan kundan boshlab 15 kun ichida reklama joyining pasportiga so‘ralgan o‘zgartirishlarni kiritgan holda pasport reyestri ma’lumotlar bazasiga ham o‘zgartirish kiritadi va reklama joyining pasportini yangilaydi hamda elektron tizim orqali ariza beruvchining shaxsiy kabinetiga yuboradi. Bunda, reklama joyi pasportining raqami, amal qilish muddati o‘zgarmaydi.

11. Reklama joyining pasportini bekor qilish tartibi

11.1. Quyidagi asoslardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda Toshkent shahar hokimining qarori bilan reklama joyining pasporti bekor qilinishi mumkin:

- reklama joyi pasportining egasi tomonidan ushbu Tartib talablari, ommaviy oferta shartnomasi shartlari yoki reklama to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bir necha bor (ikki yoki undan ortiq) buzilganida;
- reklama joyi pasportining egasi oferta shartnomasi shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli oferta shartnomasi bekor qilinganda;
- tashqi reklama va axborot obyektidan (konstruksiyasidan) oferta shartnomasida belgilanganidan tashqari (Departament bilan kelishilgan holda, reklama konstruksiyalariga IoT qurilmalari, ob-havo sensorlari, videokuzatuv kameralari va umumiy foydali maqsadlar uchun boshqa qurilmalar joylashtirilishi mumkin) boshqa maqsadlarda foydalanilganda;
- xususiy toyfasiga kiradigan mulkni balansida saqlovchi/egasi tomonidan tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish uchun tuzilgan shartnoma bekor qilinganida;
- reklama joyining pasporti berilgan kundan boshlab olti oy ichida tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) o‘rnatilmaganida;
- reklama joyi pasportining egasi tomonidan tashqi reklama va axborot obyektining (konstruksiyasining) turi, texnologiyasi, o‘lchamlari, joylashuvi va boshqa texnik tavsiflari o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirilganida;
- qurilish, hududni obodonlashtirish, binolarni (inshootlarni) rekonstruksiya qilish yoki ta’mirlash, davlat miqyosidagi bayram tadbirlari va boshqa ijtimoiy-siyosiy tadbirlar bilan bog‘liq ishlar olib borilishi, shuningdek, yo‘l belgilari va svetoforlar o‘rnatilishi munosabati bilan tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyani) o‘rnatish va texnik normativ-huquqiy hujjat talablari o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganida.

11.2. Reklama joyining pasporti uni bekor qilish uchun asoslar aniqlangan kundan boshlab 10 kun ichida Toshkent shahri hokimining qarori bilan bekor qilinadi.

11.3. Departament reklama joyining pasporti bekor qilingan kundan boshlab 3 kun ichida ushbu ma’lumot (axborot)ni tashqi reklama bo‘yicha maxsus veb-saytga joylashtirish yo‘li bilan reklama joyi pasportining egasini xabardor qiladi.

11.4. Agar reklama joyining pasporti tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) o‘rnatilgandan keyin bekor qilinsa, u holda ushbu tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qarorida belgilangan tartibga muvofiq demontaj qilinadi.

11.5. Tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) egasi tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) demontaj qilish bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatni bajarmasa, demontaj Departament tomonidan amalga oshiriladi hamda tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) demontaj qilish bilan bog‘liq (saqlash, tashish, utilizatsiya qilish v.h.) xarajatlar xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan tasdiqlangan tariflar asosida tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) egasidan undirib olinadi.

12. Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlar miqdorini belgilash tartibi

12.1. Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquqi uchun oylik yig‘imlar miqdori xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va tashqi reklama bo‘yicha maxsus veb-saytda e’lon qilinadi.

13. Tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) turlari va ko‘rinishlari

13.1. Reklama to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq ushbu Tartib doirasida quyidagilar tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) deb tan olinadi: reklama tarqatish maqsadida Toshkent shahar hududidagi binolar, qurilishlar, inshootlarning yon va atrof hududiga yoki tashqi devorlariga, tomlariga va binolarning boshqa tarkibiy elementlariga yoki ulardan tashqariga, shuningdek, umumiy foydalaniladigan shahar yerusti transporti bekatlari, jamoat hojatxonalari, savdo obyektlari va boshqa obodonlashtirish obyektlariga o‘rnatilgan shitli qurilmalar, stendlar va boshqa tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari).

13.2. Toshkent shahrida “Toshkent shahri tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ning namunaviy to‘plami”da, shuningdek, ushbu Tartibda ko‘rsatilgan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatishga ruxsat etiladi.

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 1-maydagi
VI-101-60-14-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Tashqi reklama va axborot obyektlariga (konstruksiyalariga) qo'yiladigan talablar va texnik reglament

Tashqi reklama va axborot obyektlariga (konstruksiyalariga) qo'yiladigan talablar

1. Umumiy talablar

1.1. Toshkent shahri hududida o'rnatilgan tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) Namunaviy to'plamga, shuningdek, shahardagi mavjud binolarning tashqi me'moriy qiyofasiga mos kelishi kerak.

1.2. Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) tegishli litsenziyaga ega bo'lgan vakolatli tashkilotlarning xulosalari bilan tasdiqlangan loyiha-texnik hujjatlar, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlarga mos bo'lishi kerak.

1.3. Har bir tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) uning egasi, reklama konstruksiyasining joy raqami, reklama konstruksiyasi egasining yuridik nomi, egasining telefon raqami va maxsus QR-kod ko'rsatilgan axborot tablichkasi bo'lishi shart. Markirovkalar axborot maydoni ostida joylashtiriladi. Matnning kattaligi uni eng yaqin transport harakatlanish bo'lagi yoki trotuarlardan o'qishga imkon berishi kerak.

1.4. Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) tegishli turdagi konstruksiyalarga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lgan qurilish me'yorlari va qoidalariga, texnik reglamentlarga va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq loyihalashtirilishi, tayyorlanishi va o'rnatilishi, shuningdek, sanitariya me'yorlari va qoidalari (shu jumladan yoritish, elektromagnit nurlanish va boshqalar) talablariga javob berishi kerak.

1.5. Yer uchastkalarida joylashgan tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar talablariga javob berishi kerak. Yo'l harakati belgisiga, uning tayanch qurilmasiga yoki yo'l harakatini tartibga solishga mo'ljallangan boshqa qurilmalarga reklama obyektlari (konstruksiyalari) yoki reklama xabarlari/tasvirlarini o'rnatish va ulardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

1.6. Umumiy foydalanishdagi hududlarda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) ekspluatatsiya qilish piyodalarning erkin harakatlanishini, ko'chalar va trotuarlarni tozalash imkoniyatini ta'minlashi kerak. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) shaharni gullar bilan bezashda foydalaniladigan joylarga, shuningdek, agar ular o'rnatilgandan so'ng piyodalar o'tishi hamda mexanizatsiya vositasida tozalash uchun 2 metrdan kam joy qolsa, trotuarlarga o'rnatish taqiqlanadi.

1.7. Tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatishda ishlatilgan qotirish va mahkamlash konstruktiv elementlari (boltli ulanmalar, tayanch qismlari, texnologik bog'lash buyumlari va boshqalar) bezak elementlar bilan yopib qo'yilishi shart.

1.8. Madaniy meros obyektlariga, shuningdek, ularning hududlariga tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi, diqqatga sazovor joylar hududlari bundan mustasno. Madaniy meros obyekti mulkdori yoki qonuniy boshqa egasining muhofaza qilish majburiyatiga muvofiq, madaniy meros obyektiga faqatgina madaniy meros obyekti hududida o'tkaziladigan tadbirlar: teatr-tomosha, madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar-tomosha tadbirlari to'g'risidagi axborotdan yoki ushbu tadbirlar to'g'risida homiy eslatib o'tiladigan, bunday eslatmaga reklama maydonining ko'pi bilan 7 foizi ajratilgan taqdirda, axborotdan iborat tashqi reklamani joylashtirishga ruxsat etiladi.

1.9. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) elektr tarmoqlariga ulashda reklama-axborot maydonini yoritadigan va taymer qurilmasida ishlaydigan ichki yoritqich ko'zda tutilishi hamda ushbu qurilma Toshkent shahri hokimligi tavsiyasiga ko'ra mavsumiy o'zgarishlarga muvofiq, ishga tushirilishi kerak.

1.10. Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ning tashqi yoritqichlarini yoqib qo'yish payti kunning qorong'i vaqti bilan belgilanadi (kecha-kunduz ishlaydigan obyektlar bundan mustasno).

1.11. Videoekranlarni (monitorlarni) soat 6:00dan 23:00gacha ishlatishga ruxsat etiladi hamda ushbu ish vaqtiga Toshkent shahar hokimiyati tomonidan shahar miqyosida o'tkazilgan tadbirlar, hududga xos xususiyatlar va boshqa omillardan kelib chiqib, tegishli topshiriqlar asosida tuzatishlar kiritilishi mumkin (kecha-kunduz ishlaydigan obyektlari bundan mustasno).

1.12. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) yoritish uchun sanoatda ishlab chiqarilgan, elektr va yong'in xavfsizligini ta'minlaydigan yorug'lik asboblari ishlatilishi shart.

1.13. Yorug'lik asbobi birikmasi uning tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) bilan mustahkam ulanishini ta'minlab, loyiha-texnik hujjatlar talablariga muvofiq shamol, qor bosimini, tebranish va zarbali ta'sirlarni ko'tarishi lozim.

1.14. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) montaj qilish va ularga xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishda, transport vositalarining harakatlanish hududida ish olib borishda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash talablariga rioya qilish lozim.

1.15. Tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) quyidagi holatlariga yo'l qo'yilmaydi:

- nosoz texnik holatda bo'lishiga, binoning (inshootning) me'moriy qiyofasini buzishiga, hududdagi qurilishlarga salbiy ta'sir ko'rsatishiga;
- yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari yoki maxsus ishoralari bilan o'xshash ko'rinishga, tasvirga, ovoz effektiga ega bo'lishiga, ularning ko'rinishini buzishiga, shuningdek, yo'lda transport vositasi, piyoda yoki boshqa biror obyekt bordek taassurot uyg'otishiga va harakat xavfsizligi darajasini pasaytirishiga;
- ovozli qurilmasi bo'lishiga, texnik normativ-huquqiy hujjatlar yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan shovqinning ruxsat etilgan darajasidan oshishiga;
- turar joy binolarining derazalariga bevosita yaqin joyda joylashishiga, ko'rinishni to'sib qo'yishiga, aholining xotirjam dam olishiga xalaqit berishiga, o'z yorug'ligi bilan reklama iste'molchilarining ko'rish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga;
- muhandislik yo'l inshootlariga tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalari) o'rnatishda muhandislik yo'l inshootlarining o'tish yo'llari maydoni qisqarishiga;
- temir yo'lning ajratilgan mintaqalari hamda reklamadan xoli hududlarga o'rnatilishiga (joylashtirilishiga, tarqatilishiga);
- avtomobil yo'llari va ko'chalar, shuningdek, yo'l chetlari va ajratuvchi bo'laklar, istirohat bog'lari, xiyobonlar va piyodalar uchun mo'ljallangan hududlar yuzasiga qurilish materiallari, bo'yoqlar, yo'l chiziqlari va boshqalardan nomuvofiq foydalangan holda joylashtirishiga;
- tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) inshootlarga qotirishda ularga zarar yetkazish hamda ularning mustahkamligi va barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishga;
- ushbu Tartibga muvofiq tashqi reklama va uning vositalarini joylashtirish (tarqatish) talablarini boshqacha tarzda buzgan holda o'rnatishga (tarqatishga).

1.16. Tashqi reklama va axborot konstruksiyalarini (obyektlarini) ularga reklama yoki axborot xabari/tasvirni joylashtirmasdan o'rnatishga va ulardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, tasvirni o'zgartirish bilan bog'liq ishlarni bajarish vaqti bundan mustasno, biroq u ko'pi bilan ikki kundan oshmasligi kerak.

2. Tashqi reklama va axborot obyektiga (konstruksiyasiga) qo'yiladigan talablar

2.1. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish Toshkent shahrining Namunaviy to‘plamiga va ushbu Tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

2.2. Tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) quyidagilar mavjud bo‘lganda o‘rnatiladi:

- reklama joyining pasporti;
- tashqi reklama obyektining (konstruksiyasining) texnik loyihasi;
- ushbu hududni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot bilan yer ishlarini olib borish uchun ushbu ishlarni bajarish joyi, muddati va vaqti, foydalaniladigan yo‘l texnikasi va yo‘l belgilarini joylashtirish (transport vositalari harakatlanish hududida ishlar amalga oshirilgan taqdirda) Toshkent shahar IIBB YHXB bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan chizma ko‘rinishidagi order.

2.3. Reklama joyining pasporti olingan kundan boshlab olti oy ichida tashqi reklama obyekti (konstruksiyasi) o‘rnatilmasa, reklama joyining pasporti va barcha tegishli hujjatlar bekor qilinadi. Ushbu reklama joyi onlayn auksionga chiqariladi.

2.4. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) avtomobil yo‘liga ajratilgan mintaqada o‘rnatishga ruxsat etiladi, bunda yo‘llar bo‘ylab va yo‘l chetidan bir metr masofada joylashgan tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)da haydovchilar va piyodalar uchun ko‘rishni to‘sib qo‘ymaydigan tayanchlar bo‘lishi kerak.

2.5. Alohida turuvchi tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatishda:

- yo‘l bo‘ylab tashqi reklama va axborot obyektalri (konstruksiyalari) yo‘lning qatnov qismiga parallel yoki perpendikulyar joylashishi kerak (chorrahalar bundan mustasno);
- yo‘l bo‘ylab obyekt (konstruksiya) reklama maydoni yo‘lning qatnov qismidan ortiqcha chiqmasligi kerak;
- yo‘lning ajratuvchi bo‘lagida reklama maydonining gorizontal o‘lchamlari ajratuvchi bo‘lakning enidan oshmasligi kerak;
- piyodalar uchun mo‘ljallangan hududlarda, mexanizatsiya vositasida tozalash ishlari olib boriladigan joylarda reklama yuzasining pastki cheti, shu jumladan dekorativ homiyali ramka trotuar (yer) sathidan kamida 3,0 metr balandlikda joylashgan bo‘lishi kerak;
- yo‘l belgilari va svetoforlar oldida harakat traektoriyasining istalgan nuqtasidan transport vositalarining harakatlanish yo‘nalishi bo‘yicha belgilar va svetoforlar ma’lumotlari ko‘rinishi ta’minlanishi kerak, bunda harakat bir tomonlama bo‘lgan yo‘llarda — chetki o‘ng bo‘lakdan, harakat ikki tomonlama bo‘lgan yo‘llarda — bir paytning o‘zida chetki o‘ng va chetki chap bo‘laklardan ko‘rinishi kerak.

2.6. Amaldagi tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) yangi o‘rnatilgan yo‘l belgisi yoki svetoforni to‘sib qo‘ysa, obyekt Departament talabi asosida konstruksiya egasi yozma talabnomani qabul qilib olgan kundan boshlab o‘n ish kuni ichida ko‘chirilishi kerak.

2.7. Ushbu Tartibning 2.6-bandida belgilangan talablar vaqtinchalik yo‘l belgilariga (ko‘chma tirgakdagi) va yo‘l harakatini tashkil etishda vaqtinchalik tezkor o‘zgarishlar davri uchun o‘rnatilgan belgilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2.8. Tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) ko‘chani yoritish simyog‘ochlariga, yo‘l o‘tkazgich ustunlariga, yo‘l belgilari va svetoforlarga, ularning tirgaklariga, yo‘l harakatini tartibga solish uchun mo‘ljallangan boshqa har qanday boshqa qurilmaga o‘rnatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.9. Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari ostida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatishga ruxsat etilmaydi.

2.10. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) bino, inshoot, imorat yoki ularning majmuasiga (tom, fasad, devorlar) o‘rnatish binolarning me’moriy elementlariga ziyon yetkazmagan holda Namunaviy to‘plamga muvofiq amalga oshirilishi, aholining to‘laqonli yashash muhiti, tarixiy va madaniy merosi va me’moriy landshaftini saqlash va shakllantirishga hissa qo‘shishi, shuningdek, arxitektura va shaharsozlik faoliyatining barcha subyektlari hamda ushbu binolar mulkdorlarining barcha huquq va qonuniy manfaatlarini buzmasligi lozim.

2.11. Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) bozor (savdo markazlari) va savdo maydonlari, shuningdek, boshqa muassasalarning ochiq hududlarida o‘rnatish ushbu

Tartib talablariga muvofiq, tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) egasi tomonidan ularni o‘z balansida saqlovchilar bilan o‘zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

2.12. Quyidagilar:

- tasvirni ekranga kattalashtirib tushiruvchi qurilma va axborot tasviri aks ettiriladigan yuza (ekran yoki hajm)dan iborat bo‘lgan proeksiyaviy konstruksiyalarni o‘rnatish;
- miltillab (jimillab) turadigan elementlar va harakatlanuvchi satrdan foydalangan holda tashqi reklama obyektlarini o‘rnatish;
- reklama maydoni yo‘lning qatnov qismiga chiqib turgan tashqi reklama alohida turuvchi obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish taqiqlanadi.

Quyidagi joylarga alohida turuvchi tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish taqiqlanadi:

- yo‘lning qatnov qismiga va trotuarga;
- jamoat transporti bekatlariga;
- estkadalar va ko‘priklarga;
- temir yo‘l kesishmalariga, tunnellarga va yo‘l o‘tkazgichlar pastiga;
- bevosita tunnellarga kirish va chiqish joylari yonida va ulardan 5 metrdan yaqin bo‘lmagan masofada;
- piyodalar va velosiped yo‘lkalarida;
- transport oqimini ajratuvchi bo‘laklar, xavfsizlik orolchalari yoki yashil hududlarda, bundan tashqi reklama obyekti (konstruksiyasi)ning kengligi transport oqimini ajratuvchi bo‘lak, xavfsizlik orolchasi yoki yashil hudud kengligidan oshmaydigan, tashqi reklama obyekti (konstruksiyasi) yoki reklama maydonining cheti esa qatnov qismiga chiqmaydigan holatlar mustasno;
- poydevor trotuarga, piyodalar o‘tish joyiga, muhandislik tizimlari va sug‘orish inshootlariga to‘g‘ri kelganda.

2.13. Alohida turuvchi tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) poydevori:

- Namunaviy to‘plamda belgilangan talablarga va parametrlarga muvofiq bo‘lishi lozim;
- yer sathidan 10 santimetrdan oshmasligi yoki dekorativ tarzda bezatilgan bo‘lishi kerak;
- qisman chuqurlashtirilgan poydevorning 40 santimetrdan ortiq chuqurlikdagi qismi tuproq poydevoriga qo‘yiladigan talablarga muvofiq qayta ishlanishi kerak;
- poydevor kamida 40 santimetr chuqurlikka to‘liq tushirilganda, uning yerustidagi qismi yer yuzasidan (tayanch belgisi) 10 santimetrdan oshmasligi lozim hamda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatishda, zarur hollarda, hududning yerosti kommunikatsiyalariga mas’ul organlar bilan kelishish kerak.

2.14. Tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi)ning ustuni:

- tashqi ko‘rinishni yomonlashtiruvchi biron bir xunuk elementlarsiz (ishlov berilmagan payvand choklari, zang va darz ketish joylari) tekis, silliq yuzaga ega bo‘lishi lozim, dekorativ bezak elementlaridan foydalanish hollari bundan mustasno;
- Namunaviy to‘plamga muvofiq, “0” belgisidan reklama maydonigacha bo‘lgan balandlikka ega bo‘lishi lozim, bunda reklama konstruksiyasi transport vositalari haydovchilariga zarur ko‘rish sathini ta’minlashi kerak;
- qo‘shimcha tirgaklar yoki tortib bog‘lanuvchi elementlar bo‘lmasligi kerak.

2.15. Tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) mahkamlashning tashqi elementlari himoya qoplamasi yoki boshqa dekorativ elementlari bilan yopilgan va poydevor rangiga mos holda bo‘yalgan bo‘lishi kerak.

2.16. Tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi)ning reklama maydoniga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- reklama maydonining o‘lchamlari reklama joyining pasportida ko‘rsatilgan o‘lchamlarga qat’iy mos kelishi kerak;
- konstruksiyaning reklama maydoni tomonlari o‘rtasida tirqishsiz, reklama qoplamasini mahkamlash elementlari ko‘rinishini istisno qiluvchi hoshiya ramkasiga ega bo‘lishi kerak;

- bir tomonli konstruksiya estetik tashqi ko‘rinishni ta’minlovchi konstruksiya ort qismining qoplamasiga ega bo‘lishi kerak;

- bog‘ichlarning ilmoqlari reklama maydonidan tashqariga chiqmasligi kerak.

2.17. Tashqi reklama obyektlari inshootlarga tashqi reklama obyektlarini qotirishda ularga zarar yetkazmasligi, shuningdek, ularning mustahkamligi va barqarorligi pasayishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

3. Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni obodonlashtirish obyektlarida o‘rnatishga qo‘yiladigan talablar

3.1. Ko‘chma savdo obyektlaridagi tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) — ko‘chma savdo obyektlarining tarkibiy elementlariga o‘rnatilgan va uning tarkibiy qismlari bo‘lmagan kichik formatdagi reklama konstruksiyalaridir. Ko‘chma savdo obyektidagi reklama konstruksiyasi axborot maydoning bir tomonining o‘lchami 1,2 x 1,8 metrni tashkil qiladi. Ko‘chma savdo obyektidagi reklama konstruksiyasining axborot maydonining sathi uning barcha tomonlari umumiy maydoni bilan aniqlanadi. Ko‘chma savdo obyektlaridagi reklama konstruksiyalarida ichki yoritqichlar bo‘lishi, elektr tarmoqlaridan avariyaviy uzilish tizimi bilan jihozlanishi va yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

3.2. Umumiy foydalaniladigan shahar yerusti transporti bekatlaridagi tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) — umumiy foydalaniladigan shahar yerusti transporti bekatlarining tarkibiy elementlariga o‘rnatilgan kichik formatdagi reklama konstruksiyalaridir. Umumiy foydalaniladigan shahar yerusti transporti bekatlaridagi reklama konstruksiyalari axborot maydonining bir tomonining o‘lchami 1,2 x 1,8 metrni tashkil etadi. Umumiy foydalaniladigan shahar yerusti transporti bekatlaridagi reklama konstruksiyasi axborot maydonining sathi uning ikki tomonining umumiy maydoni bilan aniqlanadi. Umumiy foydalanishdagi yerusti shahar transporti bekatlaridagi reklama konstruksiyalarining poydevorlari balandligi trotuar qoplamasi sathidan oshmasligi kerak. Umumiy foydalanishdagi yerusti shahar transporti bekatlaridagi reklama konstruksiyalarida ichki yoritqichlar bo‘lishi, elektr tarmoqlaridan avariyaviy uzilish tizimi bilan jihozlanishi va yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

3.3. Ko‘chma jamoat hojatxonalaridagi tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) — ko‘chma jamoat hojatxonalar tarkibiy elementiga o‘rnatilgan kichik formatdagi reklama konstruksiyasidir. Ko‘chma jamoat xonalaridagi reklama konstruksiyasi axborot maydonining bir tomoni bir tomonining o‘lchami 1,2 x 1,8 metr. Ko‘chma jamoat xonalaridagi reklama konstruksiyalarida ichki yoritqichlar bo‘lishi, elektr tarmoqlaridan avariyaviy uzilish tizimi bilan jihozlanishi va yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

4. Alohida turuvchi (yer uchastkalarida joylashtiriladigan) tashqi reklama va axborot obyektlarini (reklama konstruksiyalarini) o‘rnatishga qo‘yiladigan talablar

4.1. Alohida turuvchi (yer uchastkalarida joylashtiriladigan) tashqi reklama va axborot obyektlarini (reklama konstruksiyalarini) o‘rnatish Toshkent shahrining Namunaviy to‘plamiga va ushbu Tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Qo‘riqlanadigan shaxslarning harakatlanish yo‘nalishlarida alohida turuvchi (yer uchastkalarida joylashtiriladigan) tashqi reklama va axborot obyektlarini (reklama konstruksiyalarini) o‘rnatish va ulardan foydalanish faqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xavfsizlik xizmati bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

5. Ko‘chmas mulk obyektlari (binolar, inshootlar va imoratlar)ga o‘rnatiladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (reklama konstruksiyalarini) o‘rnatishga qo‘yiladigan talablar

5.1. Ko‘chmas mulk obyektlari (binolar, inshootlar va imoratlar)ga o‘rnatiladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (reklama konstruksiyalarini) o‘rnatish Toshkent shahrining Namunaviy to‘plamiga va ushbu Tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2. Ko‘chmas mulk obyektlari (binolar, inshootlar va imoratlar)ga o‘rnatiladigan tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) — individual loyiha asosida bajarilgan, bino karnizi sathidan to‘liq yoki qisman yuqoriga yoxud tomga joylashtirilgan alohida harflar va logotiplar ko‘rinishidagi tom ustidagi reklama konstruksiyalari (keyingi o‘rinlarda — tom usti reklama konstruksiyalari) bo‘lib, quyidagi elementlardan tarkib topgan:

- axborot maydoni (matnli qism) – harflar, harfiy belgilar, abbreviaturalar, raqamlar;
- badiiy elementlar (logotiplar, belgilar va boshqalar);
- qotirish elementlari (fazoviy panjara).

Axborot maydoni va badiiy bezaklar ichki yoritqich bilan jihozlanishi va pastki qatlami bo‘lmasligi lozim.

5.3. Binolar, imoratlar va inshootlarda faqat bitta tom usti reklama konstruksiyasi joylashtirilishi mumkin, bundan savdo va ko‘ngilochar markazlar, kinoteatrlar, teatrlar, sirklar, sport obyektlariga joylashtiriladigan tom usti reklama konstruksiyalari mustasno.

5.4. Tom usti reklama konstruksiyasida tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi tasviri mavjud bo‘lsa, konstruksiya axborot maydoniga kiritilgan tovar yoki xizmat ko‘rsatish belgisining alohida badiiy elementlarining balandligi Namunaviy to‘plamda ko‘rsatilgan parametrlardan (o‘lchamlardan) fakatgina 1/5 qismidan ko‘p bo‘lmagan o‘lchamda oshishiga yo‘l qo‘yiladi.

Obyekt tomiga o‘rnatiladigan tom usti reklama konstruksiyasining uzunligi:

- u joylashgan fasadning uzunligi 35 metrgacha (35 metr ham) bo‘lganda, fasad uzunligining 80 foizidan oshib ketmasligi;
- u joylashgan fasadning uzunligi 35 metrdan ortiq bo‘lganda, fasad uzunligining yarmidan oshib ketmasligi kerak.

5.5. Tom usti reklama konstruksiyasining balandligi quyidagicha o‘lchanadi:

- reklama konstruksiyasi bevosita obyekt tomiga o‘rnatilganda (obyekt tomida karniz va to‘siq (panjara) bo‘lmaganda) — obyektni tomiga qotirish nuqtasidan reklama konstruksiyasi axborot maydonining yuqori chetigacha bo‘lgan masofa;
- reklama konstruksiyasi o‘rnatilgan obyekt tomida karniz, to‘siq (panjara) bo‘lganda — obyekt tomidagi karniz, to‘siq (panjara)dan reklama konstruksiyasi axborot maydonining yuqori chetigacha bo‘lgan masofa.

5.6. Tom usti reklama konstruksiyalarining qotirish elementlari yon tomondan va yuqori qismdan ushbu konstruksiya perimetridan chiqib turmasligi kerak.

5.7. Qo‘riqlanadigan shaxslarning harakatlanish yo‘nalishlarida:

- ko‘chmas mulk obyektlariga (binolar, inshootlar va imoratlarga) biriktiriladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (reklama konstruksiyalarini) o‘rnatish va ulardan foydalanishga faqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xavfsizlik xizmati bilan kelishilgan holda ruxsat etiladi;
- tom usti reklama konstruksiyalarini bino karnizi sathida qisman pastroqda o‘rnatish va ulardan foydalanish taqiqlanadi;
- obyekt tomidagi to‘siq (panjara)dan tom ustki reklama konstruksiyasi axborot maydonining pastki chetigacha bo‘lgan masofa kamida 1,5 metr bo‘lishi kerak.

5.8. Alohida harflar va logotiplar ko‘rinishidagi tom usti reklama konstruksiyalariga ularni o‘rnatish, montaj qilish va foydalanishda xavfsizlikni ta’minlash uchun majburiy tartibda ishchi loyiha-texnik hujjatlari ishlab chiqiladi. Alohida harflar va logotiplar ko‘rinishidagi tom usti reklama konstruksiyalari elektr tarmog‘idan avariyaviy uzilish tizimi bilan jihozlangan bo‘lishi, yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

5.9. Mediafasadlar ko‘chmas mulk obyektlariga (binolar, imorat va inshootlarga) biriktiriladigan tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) qatoriga qiradi. Mediafasadlar bino, imorat va inshootlar devorlarining yuqori qismiga o‘rnatilib, tasvirni

o‘zgartirish raqamli texnologiyasidan foydalangan holda axborot materiallarini namoyish etish imkonini beradi. Ular binolar, imoratlar va inshootlarning devor sirtiga mos metall karkaslarda (bino, qurilish va inshootlar oynalarida mediafasad o‘rnatilgan hollarda) joylashtirilishi mumkin.

5.10. Binolar, imoratlar va inshootlarning devor sirtiga mos metall karkaslarda (bino, qurilish va inshootlar oynalarida mediafasad o‘rnatilgan hollarda) faqatgina profilli lineykalar (trubkalar, lamellar) yoki yorug‘lik diodlari korpuslari orasidagi ochiq joy hisobiga reklama konstruksiyasining yorug‘lik o‘tkazuvchanligini ta’minlaydigan texnologiyalardan foydalanilgan medifasadlarni joylashtirishga ruxsat etiladi.

5.11. Bino, imorat va inshootning umumiy hajmi va me’moriy shaklidan yuqoriga qarab davom etib ketadigan metall karkaslarda faqatgina profilli lineykalar (trubkalar, lamellar) yoki yorug‘lik diodlari korpuslari orasidagi ochiq joy hisobiga reklama konstruksiyasining yorug‘lik o‘tkazuvchanligini ta’minlaydigan texnologiyalardan foydalanilgan medifasadlarni joylashtirishga ruxsat etiladi.

5.12. Mediafasad qurilmasining quyidagi texnologiyasidan foydalanishga ruxsat etiladi:

- oralari ochiq gorizontal yoki vertikal jalyuzilar ko‘rinishida o‘rnatilgan yorug‘lik diodlari bor bo‘lgan profilli lineykalar (trubkalar, lamellar). Lamellar orasidagi masofa (ochiq joy) lamelning enidan kamida ikki baravar katta bo‘lishi kerak. Ushbu qurilma texnologiyasidan foydalanish yorug‘lik o‘tkazuvchi mediafasadlar uchun qo‘llanadi;

- yorug‘lik diodli to‘rlar; to‘rga o‘rnatiladigan yorug‘lik diodlari korpusi, shu jumladan asosiy korpusi diametri 80 millimetrdan oshmasligi yoki o‘lchami 80x80 millimetrdan katta bo‘lmasligi lozim. Yorug‘lik diodlari korpusi, shu jumladan asosiy korpus orasida qoldirilishi shart bo‘lgan eng kichik masofa yorug‘lik diodlari korpusi o‘lchamidan katta bo‘lmasligi, biroq kamida 40 millimetr bo‘lishi kerak. Ushbu qurilma texnologiyasidan foydalanish yorug‘lik o‘tkazuvchi mediafasadlar uchun qo‘llanadi.

5.13. Mediafasadlarda orqa va (yoki) yon tomondan yopib turuvchi panellar (devorlar) bo‘lmasligi kerak.

5.14. Mediafasadning kunduzi/tungi vaqtdagi yorug‘ligi umumiy vertikal yoritishning belgilangan darajasining me’yoriy ko‘rsatkichlariga mos kelishi, shuningdek, atrofdagi binolarning faoliyat yo‘nalishi hisobga olinishi kerak. Mediafasad keragidan ortiq yoritilishi sababli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni texnik va boshqa cheklovchi vositalar yordamida bartaraf qilish imkoniyati ham bo‘lishi zarur. Mediafasadning o‘lchami kelishilgan loyiha asosida binoning me’moriy va badiiy ko‘rinishiga qarab alohida belgilanadi.

5.15. Mediafasadlar elektr tarmog‘idan avariyaviy uzilish tizimi bilan jihozlangan bo‘lishi, yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

6. Alohida loyihalar asosida tayyorlangan tashqi reklama va axborotning noyob (nostandart) obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatishga qo‘yiladigan talablar

6.1. Tashqi reklama va axborotning noyob (nostandart) obyektlari (konstruksiyalari) — reklama ma’lumotlarini tarqatish uchun noyob (nostandart) konfiguratsiya yuzasi (shu jumladan havo sharlari, aerostatlar, hajmiy-fazoviy modellar va boshqalar) ishlatiladigan alohida loyihalar asosida tayyorlangan reklama konstruksiyalaridir. Noyob (nostandart) reklama konstruksiyalarining axborot maydoni sathi hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi.

6.2. Alohida loyiha asosida tayyorlangan tashqi reklama va axborotning noyob (nostandart) obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirishga faqatgina tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasiga muvofiq ruxsat etiladi. Tashqi reklama va axborotning noyob (nostandart) obyektlari (konstruksiyalari) joylashtiriladigan yer dislokatsiyasi chizmada o‘rnatish manzili va joyi, shuningdek, tashqi reklama va axborotning noyob (nostandart) obyektlari (konstruksiyalari)ning o‘lchamlari, konfiguratsiyasi (tavsifi) bilan birga ko‘rsatiladi.

6.3. Elektr ta'minotiga ulangan alohida loyiha asosida tayyorlangan tashqi reklama va axborotning noyob (nostandart) obyektlari (konstruksiyalari) elektr tarmog'idan avariyaviy uzilish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi, yong'in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

7. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning axborot va reklama vositalarini o'rnatish va ulardan foydalanishga qo'yiladigan talablar

7.1. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning axborot vositalariga korxonalar va boshqa tashkilotlardagi peshlavhalar kiradi hamda ularda korxonaning nomi va mulkchilik shakli, idoraviy bo'ysunishi va faoliyat turi bo'yicha ma'lumotlar aks ettiriladi.

7.2. Barcha turdagi peshlavhalar bevosita tashkilot joylashgan joyning (agar bino butunlay mazkur tashkilotga tegishli bo'lsa, binoning) yoki tashkilotga tutash va tegishli bo'lgan hududning kirish qismi tepasiga joylashtiriladi.

7.3. Peshlavhalar yassi element, tom qurilmasi ko'rinishida (agar bino butunlay mazkur korxonaga tegishli bo'lsa) tayyorlangan, shuningdek, kronshteynlarga qotirilgan bo'lishi mumkin.

7.4. Kunning qorong'i vaqtida peshlavhalar yoritilishi mumkin.

7.5. Peshlavhaning o'lchami binoning mazkur peshlavha o'rnatiladigan devori tomoni maydonining 5 foizidan katta bo'lishi mumkin emas.

7.6. Binoning old tomoniga joylashtirilgan peshlavhada tashkilotning faoliyat sohasi va uning nomlanishi aks ettirilgan bo'lishi kerak.

7.7. Maydoni 1 kvadrat metrgacha bo'lgan peshlavhalar tashqi reklama obyekti hisoblanmaydi.

7.8. Quyidagilarni o'rnatish taqiqlanadi:

- karton yoki banner matosidan tayyorlangan peshlavhalar (afishalar bundan mustasno);
- ko'p kvartirali uylarning old tomoniga noturar qavatlar chizig'idan (har bir noturar qavat o'rtasidagi qoplamalar chizig'i) yuqoriga o'rnatilgan peshlavhalar;
- miltillab (jimillab) ko'rinib turadigan elementlardan iborat peshlavhalar;
- vitrina oynasining butun balandligi va (yoki) kengligini qoplaydigan darajada elektron tashuvchilar – ekranlar (televizorlar) ko'rinishida joylashtirilgan vitrina konstruksiyalari;
- tasvirlar dinamik o'zgaruvchan tizimlarida (roller tizimlari, aylanuvchi panel tizimlari - prizmatronlar va boshqalar) posterlarni namoyish qilish yoki elektron tashuvchilarda (ekranlar (televizorlar), harakatdagi satrlar va boshqalar) namoyish etilgan tasvir yordamida joylashtirilgan peshlavhalar (elektron tashuvchi – ekran (televizor)dan foydalangan holda vitrinaga o'rnatilgan peshlavhalar bundan mustasno);
- binoning soyabonlariga joylashtirilgan peshlavhalar;
- turarjoy binolarining chegaralarida joylashtirilgan peshlavhalar;
- ko'p kvartali uylar fasadining yopiq qisqa yon tomoniga o'rnatilgan peshlavhalar;
- ayvonlar, balkonlar va ularning tomiga joylashtirilgan peshlavhalar;
- obyektlar fasadlarining me'moriy detallariga (shu jumladan ustunlar, pilastrlar, naqshlar, ganchlarga) joylashtirilgan peshlavhalar;
- ko'chalarning nomi va ko'chmas mulk obyektlarining raqamlarini to'sib qo'yadigan peshlavhalar;
- bevosita fasadning yuzasiga nakleykalar, bo'yoqlar yoki boshqa usulda tushirilgan peshlavhalar.

7.9. Tashkilotlar tovar mahsulotlarining namunalarini, shuningdek, tarkibida boshqa firmalarning savdo markalari, nomlari, tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari bo'lmagan quyidagi ma'lumotlarni joylashtirganda reklama joylashtirganlik uchun yig'imlar to'lashdan ozod etiladi:

- ushbu korxona sotadigan tovarlar va ko'rsatadigan xizmatlar to'g'risida ma'lumot;
- tashkilotning o'ziga xos yoki firma nomi (peshlavha mavjud bo'lsa), uning qayd etilgan tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari;

- tashkilot faoliyatining yo‘nalishini ochib beruvchi va uning firma nomiga mos keladigan tasviriy elementlar;

- dekorativ bezak elementlari;

- milliy bayramlar va shahar miqyosida nishonlanadigan bayramlar munosabati bilan majburiy tartibda joylashtiriladigan bayram bezaklari.

7.10. Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bilan iste’molchilarni tanishtirishga mo‘ljallangan majburiy axboroti: menyu, preyskurantlar, xizmat ko‘rsatish shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar binoning ichkarisida yoki old devorida joylashtiriladi, hajmi 1 kvadrat metrdan oshmasligi kerak.

7.11. Korxonalar, tashkilotlar va xususiy tadbirkorlarni, shu jumladan binolar fasadini axborot bilan rasmiylashtirish yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar to‘g‘risidagi axborotga kiradi va ularning o‘zlari tomonidan o‘zlariga tegishli axborot vositalarida tarqatiladi. Bunda, axborot bilan rasmiylashtirish vositasining o‘lchami 1 kvadrat metrdan oshmasligi lozim.

7.12. Boshqa foto va matnli ma’lumotlar, o‘zga tashkilotlarning tovar belgilari yoki logotiplari mavjudligi, shuningdek, axborot bilan rasmiylashtirish vositasining o‘lchami 1 kvadrat metrdan oshsa, bu holat reklama sifatida ko‘riladi hamda unga reklama joyining pasporti rasmiylashtiriladi va tegishli yig‘imlar undiriladi.

7.13. Vakolatxona va distribyutorlar tomonidan o‘zlari joylashgan manzil bo‘yicha tarqatiladigan o‘z faoliyati to‘g‘risida ma’lumot (nomi, faoliyat yo‘nalishi, rekvizitlari) reklama hisoblanmaydi, uning uchun haq olinmaydi va u mazkur Tartibga muvofiq rasmiylashtirishni talab etmaydi. Biroq, savdo belgilari va ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) ro‘yxati mavjud bo‘lsa, shuningdek, axborot bilan rasmiylashtirish vositasining o‘lchami 1 kvadrat metrdan oshsa, u reklama sifatida baholanadi.

8. Vitrajlarga reklama va axborotni joylashtirishga qo‘yiladigan talablar

8.1. Reklama axboroti vitraj oynasining ichki tomonidan yoki o‘zi yelimlanadigan plyonka ishlatilsa, tashqi tomondan joylashtiriladi.

8.2. Xizmat ko‘rsatish sohasi tashkilotlarining vitrajlarida tashkilot faoliyat yo‘nalishiga mos bo‘lmagan reklama bezaklarini joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda, ushbu bezaklar vitraj umumiy maydonining ko‘pi bilan 20 foizini egallashi mumkin. Reklama bezaklari vitraj umumiy maydonining 20 foizdan ko‘p qismini egallagan taqdirda, u reklama deb hisoblanadi va ushbu Tartibga muvofiq rasmiylashtirilishi shart. vitraj axborot maydonining sathi vitrinaning shaffof yuzasiga tushirilgan tasvirlarning kattaligi, shuningdek, vitrina ichida joylashtirilgan hajmli konstruksiyalarning kattaligi bilan belgilanadi.

9. Jamoat transporti bekatlari tuzilmasiga kiradigan tashqi reklama obyektlarini o‘rnatish va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar

9.1. Jamoat transporti bekatlari tuzilmasiga kiradigan tashqi reklama obyektlari to‘xtash majmualari tuzilishiga qarab, bir yoki bir nechta reklama panellari bilan jihozlanishi mumkin.

9.2. To‘xtash majmualarini yorug‘lik qutisi bilan, uning orqa oynasi va tom qismini (jamoat transporti kirish qismidagi yon oynadan tashqari) reklama bezaklari bilan kompleks bezashga (brendlashga) ruxsat etiladi. To‘xtash majmuasining tom qismidagi reklama bezaklari uning balandligining uchdan bir qismidan oshmasligi kerak.

9.3. To‘xtash majmuasining o‘lchamidan oshmaydigan bir yoki bir nechta alohida turuvchi reklama panellarini o‘rnatishga ruxsat etiladi.

9.4. Har bir to‘xtash majmuasida jamoat transportining kelish vaqti va yo‘nalishlari xaritasi bo‘lishi kerak.

9.5. Oynavand jamoat bekatlarida yo‘l harakati yo‘nalishini ko‘rishga to‘sqinlik qiladigan joylarga, xususan jamoat transporti kirib kelish qismidan old va yon tomonlarga tashqi reklama joylashtirish taqiqlanadi.

9.6. Jamoat transporti bekatlari tuzilmasiga kiruvchi tashqi reklama obyektlarining yoritish elementlarini tashqi yoritish tizimiga yoki elektr ta’minotiga ulashga faqat elektr ta’minoti korxonalari bilan kelishilgan holda tashqi yoritish tarmog‘ining elektr ta’minoti liniyalari bo‘ylab muhofaza zonalariga qo‘yiladigan barcha talablarga rioya etilganda ruxsat beriladi.

9.7. To‘xtash majmualarining reklama konstruksiyalari ichkarisidan yoritilishi, elektr energiyasi hisoblagichi, elektr tarmog‘idan avariyaviy uzilish tizimi bilan jihozlangan bo‘lishi, yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

9.8. To‘xtash majmualarining poydevorlari trotuarlar qoplamasi sathidan baland bo‘lmasligi kerak.

9.9. To‘xtash majmuasini o‘rnatish uchun mo‘ljallangan maydoncha amaldagi Davlat standartlariga javob berishi kerak.

9.10. To‘xtash majmualarini bezashda ilg‘or ijodiy va innovatsion yechimlar amalga oshirilgan taqdirda, ushbu Tartib talablariga muvofiq Departament tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan o‘zgarishlarga ruxsat etiladi.

10. Tashqi reklama va axborotning mobil obyektlarini o‘rnatish va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar

10.1. Lotoklar, aravachalar, kiosklar va soyabonlardagi reklama — chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining ishlash vaqtida lotoklar, aravachalar, kiosklar va soyabonlarda o‘rnatiladigan tashqi reklamaning vaqtincha obyektlari lotoklar, aravachalar, kiosklar va soyabonlarning ayrim qismlarini plyonkali yoki bo‘yoq materiallari bilan qoplamasidan iborat. Axborot maydonining sathi chizilgan tasvirning kattaligi bilan belgilanadi.

10.2. Qurilish va chakana (ko‘cha) savdo obyektlarining (yozgi kafelar, ko‘rgazmalar, savdo maydonlari va qurilgan maydonchalarining to‘siqlari) vaqtincha o‘rnatilgan to‘siqlaridagi, shuningdek, boshqa vaqtincha to‘siqlardagi reklama ushbu obyektlarning badiiy bezagini ta’minlashi lozim. Ushbu obyektlarni yengil bezak yoki uzun lenta bilan bezash tavsiya etiladi.

10.3. Qurilish to‘siqlarining har qanday turidagi reklama — qurilish obyektlarini chegaralovchi turlar va to‘siqlarning boshqa turlaridagi tasvir ko‘rinishida tashqi reklama obyektlari. Bunday to‘siqlarda reklama qurilish yoki ta’mirlash-tiklash ishlariga ruxsatnoma mavjud bo‘lsa, uning amal qilish muddati davomida binoning tashqi tomonida (old tomonida) qurilish va tiklash ishlari bajarilayotganda joylashtiriladi.

10.4. Qurilish to‘siqlarida tashqi reklamani joylashtirish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish mazkur Tartibda belgilangan tarzda amalga oshiriladi.

10.5. Reklama-axborot maydonining sathi chizilgan tasvirning kattaligi bilan belgilanadi.

11. Reklama atributlarini o‘rnatishga qo‘yiladigan talablar

11.1. Reklama atributlariga donasining o‘lchami 0,2 kvadrat metrdan katta bo‘lmagan har xil turdagi reklama mahsulotlari (breloklar, soyabonlar (faqat vaqtincha o‘rnatiladiganlari), chiqindi tashlash idishlari (urnalar), o‘rindiqlar, kuldonlar, kanselyariya anjomlari, taqvimlar, maykalar, maxsus kiyimlar, nishonlar, idishlar, shuningdek, suvenirlar va firmalar bayroqlari) kiradi.

11.2. Reklama atributlari savdo shoxobchalarini va idoralarni bezashda firma va tovarlar haqida axborot tashuvchi sifatida foydalaniladi.

11.3. Reklama atributlari tashkilot egasi tomonidan mustaqil ravishda joylashtirilishi mumkin. Ulardan tashqi reklamalarni joylashtirish tarifi bo‘yicha haq olinmaydi va ular uchun ruxsat berish hujjatlar talab qilinmaydi. Bunda, reklama egasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan talablarga rioya qilinishiga javobgar bo‘ladi.

11.4. Xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashqi bezatishning boshqa barcha turlari, jumladan, donasining o‘lchami kamida 0,2 kvadrat metr bo‘lgan suvenirlar va firmalar bayroqlari, yorug‘lik qutilari (yuridik shaxs nomidagi harflar ko‘rinishida tayyorlangan har bir harfning o‘lchami 0,2 metrdan katta bo‘lmagan yorug‘lik qutilari bundan mustasno), bo‘yash va firmaga xos tarzda bezash tashqi reklama hisoblanadi.

12. Teatr va konsert afishalari, o‘tkaziladigan ommaviy madaniy, sport va boshqa yo‘nalishdagi tadbirlar, turli aksiyalar to‘g‘risidagi e’lonlarni joylashtirish va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar

12.1. Teatr va konsert afishalari, o‘tkaziladigan ommaviy madaniy, sport va boshqa tadbirlar, turli promo-aksiyalari to‘g‘risidagi e’lonlar uchun tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish ushbu Tartib talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi kerak.

Madaniyat va sport muassasasiga tutash hududda joylashtirilgan teatr, kino va konsert afishalari tashqi reklama joylashtirganlik uchun yig‘imdan ozod qilinadi, ularda muassasaning bevosita faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar mavjud bo‘lgan holatlar bundan mustasno. Afisha konstruksiyalarining tashqi ko‘rinishi va o‘lchamlari Namunaviy to‘plamga mos bo‘lishi kerak.

12.2. Tashqi reklama obyektlariga (konstruksiyalariga) joylashtirilgan teatr va konsert afishalari, o‘tkaziladigan ommaviy madaniy tadbirlar, sport va boshqa tadbirlar, turli xil promo-aksiyalar to‘g‘risidagi e’lonlar tashqi reklama hisoblanadi.

12.3. Teatr va konsert afishalari, o‘tkaziladigan ommaviy madaniy tadbirlar, sport va boshqa tadbirlar, turli xil promo-aksiyalar to‘g‘risidagi e’lonlarning tashqi ko‘rinishi, estetik dizayni va mazmuni belgilangan talablarga muvofiqligi uchun javobgarlik ushbu konstruksiyalar egalariga yuklanadi.

12.4. Mazkur Tartib talablariga muvofiq tegishli rasmiylashtiruvlarsiz o‘rnatilgan tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari), shuningdek, konstruksiyalar tashqarisida joylashtirilgan afisha va e’lonlar noqonuniy hisoblanadi va belgilangan tartibda demontaj qilinadi.

12.5. Noqonuniy reklamalarni demontaj qilish uchun javobgarlik vakolatli organlar yoki ushbu organlar tomonidan belgilanadigan korxonalar yoki tashkilotlar zimmasiga yuklanadi. Noqonuniy joylashtirilgan reklamalarni demontaj qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ularning egalari hisobidan qoplanadi.

Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) or‘natish va ulardan foydalanish texnik reglamenti

Reklama konstruksiyalari

Pilon

O‘rtacha formatdagi alohida turadigan, kengligi 1,4 m va balandligi 2,8 m bo‘lgan bir yoki ikki axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi. Savdo va biznes markazlari, avtosalonlar yaqinida o‘rnatiladi. Avtomobil haydovchilari va piyodalar uchun mo‘ljallangan.

Pillar (burchakli)

O‘rtacha formatdagi alohida turadigan, kengligi 1,4 m va balandligi 3 m bo‘lgan uch axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi. Avtomobil haydovchilari va piyodalar uchun mo‘ljallangan.

Senior

O‘rta formatdagi alohida turadigan, kengligi 4 m va balandligi 3 m bo‘lgan bir yoki ikki axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi. Asosan avtomobil haydovchilari uchun mo‘ljallangan.

Pillar (aylanma)

Katta formatdagi alohida turadigan, kengligi 2,3 m va balandligi 4,7 m bo‘lgan bir axborot maydonli reklama konstruksiyasi. Avtomobil haydovchilari va piyodalar uchun mo‘ljallangan.

Stela

Katta formatdagi alohida turadigan, kengligi 1,5–2 m va balandligi 3–15 m bo‘lgan bir yoki ikki axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi.
Savdo va biznes markazlari, yoqilg‘i quyish shoxobchalari, avtosalonlar yaqinida o‘rnatiladi.

Bilbord

Катта форматдаги алоҳида турадиган, кенглиги 6 м ва баландлиги 3 м бўлган бир, икки ёки уч ахборот майдонидан ташкил топган реклама конструкцияси. Асосан автомобил ҳайдовчилари учун мўлжалланган.

Bilbord plyus

Juda katta formatdagi alohida turadigan, kengligi 8 m va balandligi 4 m bo'lgan bir, ikki yoki uch axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi.
Asosan avtomobil haydovchilari uchun mo'ljallangan.

Supersayt

Juda katta formatdagi alohida turadigan, kengligi 10 m va balandligi 5 m bo'lgan bir, ikki yoki uch axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi.
Asosan avtomobil haydovchilari uchun mo'ljallangan.

Brandmauerli panno

Juda katta yoki individual formatdagi bino va inshootlar fasadida joylashtiriladigan, elektron axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi. Avtomobil haydovchilari va piyodalar uchun mo'ljallangan.

Tom usti konstruksiyasi

Juda katta yoki individual formatdagi, binoda karniz sathidan yuqorida yoki yirik harflardan iborat bir statik axborot maydonli tomda joylashtirilgan reklama konstruksiyasi.

Yuqoridagi 15 turdagi reklama konstruksiyalarini Toshkent shahrida o'rnatish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu to'plam faqat ruxsat etilgan turdagi konstruksiyalar ro'yxatini belgilaydi va bu yerda ko'rsatilmagan boshqa turdagi konstruksiyalarni o'rnatish taqiqlanadi. Ushbu yo'nalishning maqsadi yuqori sifat standartini va shahar atrof-muhiti estetikasini saqlab, tashqi reklama joylashtirishni tartibga solish va nazorat qilishni ta'minlashdan iborat.

Reklama konstruksiyalari

Turli xil formatlarni bir-biriga nisbatan joylashtirishga talablar

Tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) orasidagi ruxsat etilgan masofalar quyida ko'rsatilgan, zarurat tug'ilganda, bu masofani maksimal
5% ga kamaytirish mumkin.





Reklama konstruksiyalari





Eslatma:
Afisha va e'lonlar uchun mo'ljallangan axborot ko'rsatkichlari va konstruksiyalar boshqa reklama elementlaridan mustaqil ravishda joylashtiriladi, chunki ular nafaqat fuqarolarga muhim ma'lumotlarni taqdim etish, balki Toshkent aholisining madaniy darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Ushbu konstruksiyalar joylashuv, tadbirlar va takliflar haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etib, fuqarolar uchun hammabop va qulay muhit yaratadi.

Siti-format

Konstruksiya bir yoki ikki tomonlama bajariladi. Bir tomonlama konstruksiyaning orqa tomoni dekorativ bezak bilan to'ldirilishi kerak. Konstruksiya bir yoki ikkita axborot maydoniga ega bo'lishi mumkin. Axborot ko'rsatish:

Statik axborot maydoni - qog'oz plakatlarda yoki temperli shisha yoki tripleks shisha ostidagi vinil varaqda yoritish konstruksiyaning tashqi yoki ichki chetida LED yorug'lik lampalari yordamida amalga oshiriladi;

Skroller axborot maydoni - qog'oz plakatlardagi tasvirlarni rollerli mexanizm yordamida navbat bilan o'zgartirish, yoritish konstruksiyaning tashqi yoki ichki chetida LED yorug'lik lampalari yordamida amalga oshiriladi;

Elektron axborot maydoni - LED yoritgichi yordamida, tovushsiz videoqator, qo'shimcha yoritishni talab qilmaydi.

Kabel yer ostidan o'tkaziladi. "Antigraffiti" qoplamasi.



Konstruksiyaning xususiyatlari			
Axborot maydoni	**Statik**	**Skroller**	**Elektron**
Poydevor	Temirbeton yoki beton	Temirbeton yoki beton	Temirbeton yoki beton
Ustun	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat
Karkas	Kukunsimon bo'yoqli alyuminiy	Kukunsimon bo'yoqli alyuminiy	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat
Qoplama rangi	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5
Yoritish tizimi	Tashqi yoki ichki Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²	Tashqi yoki ichki Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²	Ichki Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²

Eslatma:
Poydevor qoplama sathidan yuqoriga chiqmaydigan, chuqurlashtirilgan bo'lishi kerak;
Reklama obyekti (konstruksiyasi) elektr ta'minoti tarmog'idan favqulodda o'chirish tizimi bilan jihozlangan va yong'in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

* *Maksimal yorqinlik O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilangan shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ko'rsatilgan. O'lchovlar Davlat standartlariga muvofiq o'tkaziladi. O'lchovlar Davlat standartlariga muvofiq o'tkaziladi.*

Siti-formatning joylashuvi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilyonlari va nostandart savdo obyektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)dan kamida 50 m.
7. Chorrahalargacha kamida 5 m. Ko'rinishi cheklangan joylar chegaralarida joylashuvi taqiqlanadi.

* *Masofalar yo'lning bir tomonida joylashgan obyektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Axborot tarkibi

Axborot peshlavhasining o'lchami

Peshlavha o'lchami	90 × 210 mm	**Peshlavha rangi**	Oq
QR-kodning o'lchami	50 × 50 mm	**Shrift rangi**	Qora
Shrift o'lchami	8 mm	**QR-kodning rangi**	Qora

Reklama konstruksiyasi

Eslatma:
Axborot peshlavhasi har bir reklama sirtining pastki qismida joylashgan bo'lishi kerak.

Siti-formatning maqbul tashqi ko'rinishlari va dizayni

Reklama konstruksiyalari

Siti-format ustunda

Konstruksiya bir yoki ikki tomonlama bajariladi. Bir tomonlama konstruksiyaning orqa tomoni dekorativ bezak bilan to'ldirilishi kerak. Konstruksiya bir yoki ikkita axborot maydoniga ega bo'lishi mumkin. Axborot ko'rsatish:

Statik axborot maydoni - qog'oz plakatlarda yoki temperli shisha yoki tripleks shisha ostidagi vinil varaqda yoritish konstruksiyaning tashqi yoki ichki chetida LED yorug'lik lampalari yordamida amalga oshiriladi;;

Skroller axborot maydoni - qog'oz plakatlardagi tasvirlarni rollerli mexanizm yordamida navbat bilan o'zgartirish, yoritish konstruksiyaning tashqi yoki ichki chetida LED yorug'lik lampalari yordamida amalga oshiriladi;

Elektron axborot maydoni - LED yoritgichi yordamida, tovushsiz videoqator, qo'shimcha yoritishni talab qilmaydi.

Kabel yer ostidan o'tkaziladi. "Antigraffiti" qoplamasi.



Konstruksiyaning xususiyatlari			
Axborot maydoni	**Statik**	**Skroller**	**Elektron**
Poydevor	Temirbeton yoki beton	Temirbeton yoki beton	Temirbeton yoki beton
Ustun	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat
Karkas	Kukunsimon bo'yoqli alyuminiy	Kukunsimon bo'yoqli alyuminiy	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat
Qoplama rangi	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5
Yoritish tizimi	Tashqi yoki ichki Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²	Tashqi yoki ichki Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²	Ichki Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²

Eslatma:
Poydevor qoplama sathidan yuqoriga chiqmaydigan, chuqurlashtirilgan bo'lishi kerak; Reklama obyekti (konstruksiyasi) elektr ta'minoti tarmog'idan favqulodda o'chirish tizimi bilan jihozlangan va yong'in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

* *Maksimal yorqinlik O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilangan shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ko'rsatilgan. O'lchovlar Davlat standartlariga muvofiq o'tkaziladi. O'lchovlar Davlat standartlariga muvofiq o'tkaziladi.*

Ustundagi siti-formatning joylashuvi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilyonlari va nostandart savdo obyektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)dan kamida 50 m.
7. Chorrahalargacha kamida 5 m. Ko'rinishi cheklangan joylar chegaralarida joylashuvi taqiqlanadi.

* *Masofalar yo'lning bir tomonida joylashgan obyektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Axborot tarkibi

Reklama obyekti pasportining QR-kodi

Reklama obyekti (konstruksiyasi)

Axborot peshlavhasi

Reklama obyekti joyining raqami

Reklama obyekti (konstruksiyasi) egasining yuridik nomi

Reklama obyekti (konstruksiyasi) egasining telefon raqami

Axborot peshlavhasining o'lchami

Peshlavha o'lchami	90 × 210 mm	**Peshlavha rangi**	Oq
QR-kodning o'lchami	50 × 50 mm	**Shrift rangi**	Qora
Shrift o'lchami	8 mm	**QR-kodning rangi**	Qora

Reklama konstruksiyasi

Eslatma:
Axborot peshlavhasi har bir reklama sirtining pastki qismida joylashgan bo'lishi kerak.

Reklama konstruksiyalari

Axborot stendi

Konstruksiya bir yoki ikki tomonlama bajariladi. Bir tomonlama konstruksiyaning orqa tomoni dekorativ bezak bilan to'ldirilishi kerak. Konstruksiya bir yoki ikkita axborot maydoniga ega bo'lishi mumkin. Axborot ko'rsatish:

Statik axborot maydoni - qog'oz plakatlarda yoki temperli shisha yoki tripleks shisha ostidagi vinil varaqda yoritish konstruksiyaning tashqi yoki ichki chetida LED yorug'lik lampalari yordamida amalga oshiriladi.

Kabel yer ostidan o'tkaziladi. "Antigraffiti" qoplamasi.



Konstruksiyaning xususiyatlari	
Axborot maydoni	Statik
Poydevor	Temirbeton yoki beton
Ustun	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat
Karkas	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat yoki polikarbonat
Qoplama rangi	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5
Yoritish	Tashqi Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²

Eslatma:
Poydevor qoplama sathidan yuqoriga chiqmaydigan, chuqurlashtirilgan bo'lishi kerak;
Reklama obyekti (konstruksiyasi) elektr ta'minoti tarmog'idan favqulodda o'chirish tizimi bilan jihozlangan va yong'in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

* *Maksimal yorqinlik O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilangan shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ko'rsatilgan. O'lchovlar Davlat standartlariga muvofiq o'tkaziladi.*

Axborot stendining joylashuvi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilyonlari va nostandart savdo obyektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)dan kamida 50 m.
7. Chorrahalargacha kamida 5 m. Ko'rinishi cheklangan joylar chegaralarida joylashuvi taqiqlanadi.

* *Masofalar yo'lning bir tomonida joylashgan obyektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Axborot tarkibi

Reklama obyekti pasportining QR-kodi

Reklama obyekti (konstruksiyasi)

Axborot peshlavhasi

Reklama obyekti joyining raqami

Reklama obyekti (konstruksiyasi) egasining yuridik nomi

Reklama obyekti (konstruksiyasi) egasining telefon raqami

Axborot peshlavhasining o'lchami

Peshlavha o'lchami	90 × 210 mm	Peshlavha rangi	Oq
QR-kodning o'lchami	50 × 50 mm	Shrift rangi	Qora
Shrift o'lchami	8 mm	QR-kodning rangi	Qora

Reklama konstruksiyasi

Eslatma:
Axborot peshlavhasi har bir reklama sirtining pastki qismida joylashgan bo'lishi kerak.

Reklama konstruksiyalari

Axborot ko'rsatkichi

Konstruksiya bir yoki ikki tomonlama bajariladi. Bir tomonlama konstruksiyaning orqa tomoni dekorativ bezak bilan to'ldirilishi kerak. Konstruksiya bir yoki ikkita axborot maydoniga ega bo'lishi mumkin. Axborot ko'rsatish:

Statik axborot maydoni - qog'oz plakatlarda yoki temperli shisha yoki tripleks shisha ostidagi vinil varaqda yoritish konstruksiyaning tashqi yoki ichki chetida LED yorug'lik lampalari yordamida amalga oshiriladi.

Kabel yer ostidan o'tkaziladi. "Antigraffiti" qoplamasi.



Konstruksiyaning xususiyatlari	
Axborot maydoni	Statik
Poydevor	Temirbeton yoki beton
Ustun	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat
Karkas	Ruxli gruntovka bilan qoplangan bo'yalgan po'lat yoki polikarbonat
Qoplama rangi	RAL 7035, CMYK 20 / 10 / 15 / 5
Yoritish	Ichki Yorqinlik* ≤ 100 kd/m²

Eslatma:
Poydevor qoplama sathidan yuqoriga chiqmaydigan, chuqurlashtirilgan bo'lishi kerak;
Reklama obyekti (konstruksiyasi) elektr ta'minoti tarmog'idan favqulodda o'chirish tizimi bilan jihozlangan va yong'in xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.

* *Maksimal yorqinlik O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilangan shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ko'rsatilgan. O'lchovlar Davlat standartlariga muvofiq o'tkaziladi.*

Axborot ko'rsatkichining joylashuvi*

1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilyonlari va nostandart savdo obyektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)dan kamida 50 m.
7. Chorrahalargacha kamida 5 m. Ko'rinishi cheklangan joylar chegaralarida joylashuvi taqiqlanadi.

* *Masofalar yo'lning bir tomonida joylashgan obyektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Axborot tarkibi

Reklama obyekti pasportining QR-kodi

Reklama obyekti (konstruksiyasi)

Axborot peshlavhasi

Reklama obyekti joyining raqami

